

ISMOIL AL-BUXORIYNING NURLI HAYOT YO'LI

Absalomova Komolaxon Ulug'bek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada islom olamining yirik mutafakkiri bo'lmish imom Ismoil al-Buxoriyning nurli hayot yo'li va ularning pedagogik g'oyalari haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: pedagogik g'oya, muhaddis, hadis, sahih hadis, nosahih hadis, sahoba, tobein, roviy, imom.

Hadis ilmining rivojlanishiga, ayniqsa, bizning yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar ulkan hissa qo'shgan. Shunday muhaddislardan eng mashhuri Imom Abu Abdulloh Muhammad ibni Ismoil al-Buxoriydir. Imom al-Buxoriyning asl ismi Muhammad bo'lgan. 810-yilning 21-iyunida Buxoro shahrida tavallud topgan. Otasi Ismoil Buxoriy ham muhaddis edi, goho tijorat bilan shug'ullanardi. Lekin juda halol, xudojo'y odam edi. Onasi ham diyonatli, qalbi Allohda, qo'li duoda yuruvchi pokiza ayol bo'lgan. Imom Buxoriyning otasi erta vafot etganidan tarbiyasida onasining xizmati katta bo'ldi. O'n yoshlarida o'z zehni va yod olish qobiliyati bilan ustozlarini shoshirib qoyar edi. O'n olti yoshida minglab hadislarni yod bilar, ularning "sahih", "nosahih"ligini birma-bir isbot qilib bera olar edi. U bular bilan cheklanib qolmaydi. Kesh bilan Marvdan Makka-yu Madinagacha, Balx bilan Hirotdan Bog'dod-u Basragacha, Nishopurdan Misr va Shomgacha yurtma-yurt, shaharma-shahar kezib, ilm o'rganadi, o'zi aytganidek, mingdan ortiq ishonchli ulamolardan hadis yozib oladi. Qanchadan qancha mashhur muhaddislar bilan uchrashdi, sahobalar va tobeinlarning hayot sanalarini birma-bir tekshirib, ularning har bir hadisni Qur'oni karim oyatlariga va payg'ambarimiz hayotlariga solishtirib chiqdi.

Bularning samarasi sifatida bizga yigirmadan ko'proq asar qoldirdi. Buyuk alloma mehnatining naqadar kattaligini tasavvur qilish uchun birgina ma'lumotni keltirish bilan cheklanamiz. U yolg'iz "Al-jome as-sahih" («Ishonchli to'plam») kitobi ustida 16 yil ishlagan. Unga kiritilgan 7397 hadis 600 ming hadisning ichidan saralab olingan. O'z aql-u zakovati va tinimsiz mehnati bilan olis yurtlarda beqiyos shuhrat topgan, "muhaddislar imomi", "muhaddislar sultoni" unvonlarini olgan al-Buxoriy, nihoyat, ona yurtiga Buxoroga qaytadi. Biroq ona yurti Buxoroda, afsuski, o'ziga munosib qadr topmaydi. Bir voqea yuz beradi-yu, u kindik qoni to'kilgan shaharni tark etadi. Bu voqea shunday edi. Shu yillari Buxoro amiri bo'lib turgan Xolid ibn Ahmad al-Buxoriy huzuriga ilm olish maqsadi bilan dunyoning turli tomonlaridan kelayotgan odamlar oqimini ko'rgach, u ham bolalarini o'qitmoqchi bo'ladi va olimga chopar yuborib, saroyiga kelib, ularga dars berishini buyuradi. Imom al-Buxoriy amir chopariga: "Men ilmni xor qilmayman, uni hukmdorlar eshigiga olib bormayman", — deb javob beradi. Amir yana chopar yuboradi va bolalari uchun maxsus vaqt ajratib, boshqalarsiz, alohida saboq berishini talab qiladi. Buyuk olim yana rad etadi. Ilm olmoqlik Rasululloh sunnati ekanligini, hamma tengligini, ilm kerak bo'lsa, amir va bolalari uning uyiga yoki masjidga borishlari mumkinligini aytadi. Xullas, ora buziladi. Imom Buxoriyning Buxoroda turishi qiyin bo'lib qoladi. Imom Buxoriy hayotining so'nggi yillari Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida kechdi. U 870-yilning 31-avgustida vafot etdi. Qabri o'sha yerda, hozirgi Samarqand viloyati Payariq tumani Xartang qishlog'ida joylashgan.

Buyuk bobomiz to'plab, saralab bergan minglab hadislar, mana, necha asrlardirki, avlodlar uchun qo'llanma va yo'llanma bo'lib kelmoqda. Imom al-Buxoriyning pedagogik g'oyalari ta'lim va tarbiyalash jarayonlarida ilmiy, ma'naviy, diniy, madaniy bilimlarni o'rganish va shakllantirishni o'z ichiga oladi. Imom al-Buxoriy adolatli bo'lmoq, salom berishlik hamda sadaqa berishlik ayniqsa, kambag'al bo'la turib ham sadaqa berishlikni ulug'lagan. Bu haqida olim shunday rivoyat qiladi. Sahoba Ammor (r.a) aytgan: «Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal

bo'lg'aydir: insofli va adolatli bo'lmoq; barchaga salom bermoq; kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq».

Ammor ibn Yosir (564-657) - hazrat Alining yordamchilaridan, sahoba. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dan bir kishi so'radi: "Islomda eng yaxshi xislatlar qaysidir?" "Dedilar: "Ochlarga taom bermoqlik, tanigan va tanimaganga salom bermoqlik". Ilm olishlik insonni shaxsiy rivojlanishini ta'minlab, uning dunyoqarashini ilg'or qiladi. Bundan tashqari ilmni o'rganib, amal qilib va insonlarga o'rgatish fazilatlari haqida shunday rivoyat qiladi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: «Alloh taolo menga yuborgan hidoyat (Alloh taolo bandalariga ko'rsatgan to'g'ri yo'l, yo'llanma) singari ilm ham ko'p yoqqan yomg'irga o'xshaydi. Ba'zi yer sof, unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradi va ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan, o'zida to'playdi, undan Alloh taolo bandalarini foydalanitiradi. Odamlar suvdan ichadi, hayvonlarini va ekinlarini sug'oradi. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydi, ko'katni ham ko'kartirmaydi. Bularni quyidagicha muqoyasa qilish mumkin: Bir kishi Alloh ilmini (islomni) teran o'rganadi, teran tushunadi va undan manfaatlanadi va Alloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadi. Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadi. Ammo o'zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydi, o'zgalarga ham o'rgatmaydi. Bulardan birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir".

Imom al-Buxoriyning pedagogik g'oyalarida o'quvchilarni islomiy ta'lim, tarbiya va bilim berishga intilishlarni kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktablari darslik 5-sinf. I qism/S. Ahmedov, B. Qosimov, -T.: «Sharq», 2015/ 21,22,23- bet.

2. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 410-415.

3. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 78-83.
4. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 321-324.
5. Mirzakarimova M. M. et al. “Avesto” va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 224-228. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6696>
6. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 264-269.
7. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO ‘NALTIRIB O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //Nova. Pub. – 2022. – C. 1-128.
8. Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 216-222.
9. Madaminjonovna M. M. Umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 97-103.
10. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aajfpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.
11. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – T. 2. – №. 8. – C. 92-94.
12. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – C. 7128-7131.
13. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY”. – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 63-65.
14. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – T. 5. – №. 3. – C. 15-17.
15. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/imom-al-buxoriyning-pedagogik-g-oyalari>.
16. <https://cyberleninka.ru/article/n/imom-al-buxoriyning-pedagogik-qarashlari>.